

UDC: 343.9

ORCID: 0000-0002-9758-5265

IJTIMOiy TARMOQLARDAGI SOXTA XABARLAR VA ULARGA BELGILANGAN QONUNIY CHORA YO'SINLARI

Abrorov Javohir Ismatullayevich,
Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridik fakulteti talabasi
e-mail: yuristuz411@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet foydalanuvchilari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oqibatlarini bayon etilgan. Maqolada yoritilgan muammo mazmunining nechog'lik dolzarbligi birgina jamiyat doirasi bilangina cheklanib qolmasdan, davlat siyosatiga molik masalalar ekanligi taqdim etilgan ma'lumotlarga tayanilganligi asoslab berilgan. Qonun buzilish holatlari dalillarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, muammoning ilmiy ishlab chiqish darajasi, bunga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni yoritilgan. Maqolada bunday holatlarni bartaraf etish xorij tajribasiga asoslangan holda o'rganilishi lozimligi, bu borada mutaxassislarining bergan ilmiy xulosa va takliflari bayon etilgan. Soxta xabarlar tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qanday holatlarda yuzaga kelishi o'rganilgan. Bunday jinoyatlar sodir etilsa-da, qonunbuzarlarga qonuniy chora ko'rish yo'llari mavjud emasligi, hali hamon kamchiliklar mavjudligi daliliy isbotlar bilan yoritilgan. Xo'sh, O'zbekistonda bunga nisbatan qanday chora-tadbirlar ko'rilayotgani, qonunchilikning bunga fikri qandayligi atroflicha o'rganilgan. O'zbekiston uchun soxta xabarlar mavzusi nima uchun muhimligi analiz qilingan. Olingan ma'lumotlarga tayangan holda yakuniy yechim va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: feyk xabarlar, axborot erkinligi prinsipi, virtual resurslar, deep-fakes, kiberjinoyatchilik, kiberxavfsizlik tashkilotlari, media-savodxonlik dasturi.

ПОДДЕЛЬНЫЕ СООБЩЕНИЯ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ И СПОСОБЫ СУДЕБНОГО ПРЕСЛЕДОВАНИЯ ПРОТИВ НИХ

Аброров Джавохир Исмагуллаевич,
студент юридического факультета
Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В этой статье описаны последствия преступлений, совершенных пользователями Интернета. Статья рассматривает актуальную проблему, на основании предоставленной информации сделан вывод о том, что данная проблема не ограничивается рамками общественных интересов, а является вопросом государственной политики. Освещается уровень научной разработки проблемы и содержание научных исследований по ней. Пути устранения проблемных вопросов изучены исходя из зарубежного опыта, описаны научные выводы и рекомендации специалистов по этому поводу. Проанализированы основные факторы, влияющие на распространение фейковых новостей, причины отсутствия правовых мер против правонарушителей, даже если доказано, что преступления совершены. Изучены меры, принимаемые в Узбекистане в этом направлении, и как это отражено в законодательстве. Выявлено, почему тема фейковых новостей актуальна для Узбекистана. На основании полученных результатов сделаны выводы и даны рекомендации.

Ключевые слова: фейковые сообщения, принцип свободы информации, виртуальные ресурсы, дипфейки, киберпреступность, организация кибербезопасности, программа медиаграмотности.

FAKE MESSAGES ON SOCIAL NETWORKS AND WAYS TO TAKE LEGAL ACTION AGAINST THEM

Abrorov Javohir Ismatullaevich,

Student of the Faculty of Law of Karakalpak State University

Abstract. *This article describes the consequences of crimes committed by internet users. The article is based on the relevance of the problem, based on the information provided that it is not limited to the scope of society, but is a matter of public policy. Violations have been analyzed based on evidence. At the same time, the level of scientific development of the problem, the content of scientific research on it are covered. The elimination of such cases should be studied on the basis of foreign experience, the scientific conclusions and recommendations of experts in this regard are described. The main factors influencing the spread of fake news have been studied. It has been discussed that there is no way to take legal action against offenders, there are still flaws highlighted by the evidence. The measures being taken in Uzbekistan in this regard, and what the legislation thinks about it and the question why the topic of fake news is important for Uzbekistan are analysed in this article. Based on the information received, the final solution and recommendations are provided.*

Keywords: *Fake messages, the principle of freedom of information, virtual resources, deep-fakes, cybercrime, cybersecurity organizations, media literacy program.*

Fikr erkinligi – insonning asosiy huquqlaridan biri. O‘z nuqtayi nazarini ifoda etish va erkin gapirish jamiyatdagi o‘zgarishlar uchun muhimdir. So‘z erkinligisiz hech qanday huquqlarga erishish mumkin emas. Ammo bu kabi holatlar fikr erkinligiga kirmaydi, soxta va uydirma ma‘lumot to‘qib, o‘zgani haqoratlashdan boshqasi emas.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining xolis va adolatli, tezkor va aniq bo‘lishi uchun qat‘iy qoidalar mavjud. Misol uchun, Konstitutsiyasida so‘z erkinligiga bo‘lgan huquqni quyidagi hollarda istisno qiladi: odobsizlik, ustidan kulish (bulling), tuhmat (uydirma, bo‘xton), bolalar pornografiyasi, yolg‘on guvohlik berish, shantaj, noqonuniy harakatlarga da‘vat qilish, haqiqiy tahdid va jinoyatlarga da‘vat qilish [1].

Ijtimoiy tarmoqlar asrida tarmoq foydalanuvchisi qarshisida haqqoniy axborotni yolg‘onidan ajratish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Gap faqat noaniq fakt va ma‘lumotlar to‘g‘risida emas, balki avval boshdan biron maqsadni ko‘zlab ataylab to‘qilgan yolg‘on xabarlar, ya‘ni feyklar haqida bormoqda.

Feyklar ichki va tashqi siyosatga ta‘sir o‘tkazadi, xususan, mamlakatlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi, saylovchilarni va davlat miqyosida muhim qarorlar qabul qiluvchi shaxslarni chalg‘itadi, oddiy insonlarning kundalik maishiy hayoti va ruhiy xotirjamligiga putur yetkazadi.

Fikrimiz isbotiga quyidagi ikki misolni keltiramiz:

1-keys. Vashingtonda otishma. 2016-yil Xillari Klinton xonimning yosh bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotga aloqadorligi haqidagi yolg‘on xabarga ishongan 28 yashar shaxs Comet Ping Pong pitsseriyasiga to‘pponcha bilan kirib keladi va muassasa sohibini ham shu tashkilotga a‘zo degan gumonda unga qarata o‘q uza boshlaydi. Yaxshiki, bunda hech kim jiddiy zararlanmadi [2].

2-keys. 2016-yilning dekabrda Pokiston mudofaa vaziri Xavoja Asif o‘zining Twitter sahifasida “Isroil Islomobodga yadro quroli bilan po‘pisa qildi, ammo Tel-Aviv Pokistonda ham yadro quroli borligini unutmasin” degan mazmunda tvit yozib qoldirdi. Vazir AWD News saytida e‘lon qilingan feyk xabarga ishonib bu tvitni yozgan edi. Isroil mazkur xabar yolg‘on ekanini isbotlash uchun ancha ovora bo‘ldi. Birgina yolg‘on xabar mamlakatlararo siyosiy inqirozga sabab bo‘layozdi [3].

Ko‘rinib turganidek, yolg‘on xabarlar haqida hokimiyatda katta vakolat va kuchga ega insonlar, saylovchilar, kasallarni davolovchi shifokorlar, umuman, muhim qarorlar qabul qiluvchi insonlar ishonib qo‘yishlari mumkin. Bu esa juda jiddiy oqibatlariga olib kelishini taxmin qilish qiyin emas. Bugungi kunda feyklardan kelayotgan xavf ko‘lamini to‘g‘ri baholab, ularga qarshi davlat miqyosida kurashish tendensiyasi dunyo davlatlari orasida tobora rivojlanib borayotganini ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, “deep-fakes” (sun‘iy aql ishtirokida soxta axborot, foto va videomateriallarni

tayyorlash) avj olib borayotgani kuzatilmogda. Shu munosabat bilan, yolg'on xabarlar mavzusi yirik muhokama maydonlarida tez-tez tilga olinmogda. Jumladan, 2019-yil 21-22-fevralda Venada bo'lib o'tgan YEXHT Parlament assambleyasining qishki sessiyasida [4] bu mavzu diqqat e'tiborda turdi. Bundan tashqari, 2019-yilgi Xalqaro Peterburg yuridik forumi ham "Feyk-nyus borasidagi qonunchilikka OAVning munosabati: Rossiya va jahon tajribasi" mavzusida o'tkazildi [5]. Feyklarga qarshi kurash strategiyasini izlab topish hozirda qator Yevropa mamlakatlari va AQShning prioritetlari qatoridan joy olgan.

Fayk news o'zi nima?

Feyk – ingliz tilidagi "fake", ya'ni soxta, uydirma, yolg'on so'zidan olingan. Bu o'zbek tiliga, ayniqsa, ijtimoiy tarmoq tomonidan to'g'ridan to'g'ri kiritilmogda. Umuman olganda feyk – asosan internet kanallari orqali tarqatilishi urf bo'layotgan soxta xabarlar yoki ma'lumotlardan iborat [6].

Soxta yangiliklar fenomeni qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, ammo yolg'on xabarlar doimo ziddiyatlar asosida yaratiladi. Jahonda sodir bo'layotgan urushlar, diniy va milliy ziddiyatlar, ichki siyosiy nizolarning barchasining asosida yolg'on xabarlar yotib, ularni kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Feyk xabarlarni tarqatishdan asosiy maqsad e'tiborni tortish, yolg'on xabarlarga foydalanuvchilarni ishontirish, jamiyatda amaldagi hukumatga nisbatan ishonchsizlikni hosil qilish. Bu biz ahamiyat bermayotgan mayda, ammo asorati katta bo'lgan muammolardan biridir. Sababi hozirgi kunda aholining 51 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi 2020-yil iyul oyidagi ma'lumotlariga ko'ra, 3,96 milliard kishi (dunyo aholisining 51%) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. O'zbekistonda 2020-yil yanvar oyida bu ko'rsatkich 3,2 million kishiga yetdi [7]. 2018-yil boshida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bergan ma'lumotiga binoan O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 20 milliondan oshgan. Ijtimoiy tarmoqlarning (Facebook, Instagram, Telegram) faol kundalik auditoriyasi 1,6 mln foydalanuvchini tashkil etadi [8].

Har qanday noto'g'ri xabar feyk bo'ladimi?

– Yo'q, har qanday noto'g'ri ma'lumot ham feyk bo'lavermaydi. Bunda ushbu ma'lumotning kelib chiqishi va uni tarqatishdan ko'zlangan

maqsad muhim rol o'ynaydi. Masalan, ob-havo ma'lumotlarini tarqatuvchi "bugun yomg'ir yog'maydi" desa, bunday deyishga ilmiy-tadqiqiy asoslari bo'lsa, ammo yomg'ir yog'sa, ushbu ma'lumot feyk hisoblanmaydi. Biroq bugun yomg'ir yog'ish-yog'masligi haqida umuman ma'lumotga ega bo'lmay, "yomg'ir yog'adi" deya ataydan yolg'on ma'lumot tarqatsa, feyk bo'ladi.

Feyklarning oddiy jurnalistlik xatolaridan farqi shuki, ular avval boshdanoq ma'lum manfaatlarni ko'zlab, ataydan to'qib chiqariladi va tarqatiladi. Shu sababli ham jahon tajribasida yolg'on axborot tarqatganlik uchun javobgarlik aynan "avvaldan bila turib ataydan tayyorlash va tarqatish" holatlariga nisbatan tatbiq etilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni axborot tarqatuvchining noto'g'ri ma'lumotni tarqatishda uning noto'g'ri ekanini bilishi va bundan biron manfaat-maqsad ko'zlagani isbotlanishi lozim. Olaylik, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi u yoki bu ma'lumotning rostligiga ishonib, uni o'z sahifasida ulashsa, bu huquqbuzarlik emas, biroq ma'lumotning yolg'onligini bilib turib uni yaratsa va/yoki uni tarqatishda ishtirok etsa, huquqbuzarlik deb qaraladi. Bunda tarqatilgan ma'lumotning feyk yoki xato deb tan olinishini mansabdor shaxs emas, sud hal qiladi [9].

Ba'zan odamlar yolg'onligi aniq bo'lib turgan axborotga ko'proq ishonishadi. Chunki inson tabiatida yolg'onga ishonish kuchliroq. Yolg'on xabarda kimningdir sha'niga nisbatan salbiy fikrlar bo'ladi, u, albatta, tanqidiy bo'ladi. Axborot oluvchilar odatda haqiqiy holat baribir yashiriladi, degan gumonda yolg'on mazmundagi axborotga ko'proq ishonadi. Shuning uchun yolg'on axborot qanday ko'rinishda bo'lmasin, unga ishonch kuchliroq va haqiqat yuzaga chiqquniga qadar odamlar orasida aylanib yuradi. Bu bir tomondan, axborotni o'z vaqtida oshkor qilmaslik bilan ham bog'liq. Shuning uchun feyk xabarlarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi oson. U yoki bu axborot rasmiy manbalarda chop etilmagach, turli kanallarda, bu sohada professional bo'lmagan insonlar tomonidan voqealarning noto'g'ri talqin qilingan holda tarqalishi mana shunday oqibatlarini ham keltirib chiqaradi.

Soxta yangiliklarning tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu axborot mahsulotlarini ishlab chiqarishda media institutlari tomonidan monopoliyani yo'qotishdir. 50 yoki

70 yil oldin, ommaviy aloqani ilmiy asoslashga urinishlar yangi boshlanganda, yangiliklar mahsulotlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy ommaviy axborot vositalari institutlari, ya'ni yirik gazetalar, nashriyotlar, televizion studiyalar, media-konglomeratlar, davlat kanallari va boshqa yirik o'yinchilarning media bozori vakillari bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, televizion eshittirish juda ko'p resurslarni talab qiluvchi jarayon bo'lganligi va gazetalarni ommaviy bosib chiqarish moddiy resurslarning katta xarajatlari va boshqa ko'plab muassasalar bilan aloqalarni o'rnatish zarurati bilan bog'liqligi bilan izohlana-di [10].

Muammoni ilmiy ishlab chiqish darajasi haqida gapiradigan bo'lsak. Axborot muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan soxta yangiliklar qator rus va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlari doirasidir. Soxta yangiliklarning taniqli yaratuvchisi Mil Grnkarov soxta ma'lumotni yaratish soddaligi va uni fosh etishning o'ta qiyinligi haqida shunday deydi: "Ko'pgina soxta yangiliklar oddiy odamlar tomonidan yoziladi. Bir narsa aniq: soxta yangiliklarni to'qish va tarqatish uni aniqlash va fosh etishdan ko'ra ancha osondir" [11]. Mil Grnkarov 13 yoshida soxta yangiliklardan foydalanishni boshladi. Makedoniyadan Siyosatshunoslik va biznesni boshqarish yo'nalishida tahsil olgan talaba sifatida Mil dunyo miqyosidagi muhim saylovlarda diqqat markazida bo'lgan. Mashxur prodyuser Gay Kampanelli o'z nutqida "Biz gaplashayotgan narsa – bu havodan to'qib chiqarilgan hikoyalar. Ko'pgina o'lchovlar bo'yicha, ataylab va har qanday ta'rifga ko'ra bu yolg'ondir" [12], deb ta'rif beradi.

Soxta yangiliklar: nega bu muammo va u bilan qanday kurashish mumkin?

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra dastlab alohida shaxslar yoki turli e'tiqotdagi kichik guruhlar tomonidan amalga oshirilib kelingan "badnom qilish" usuli keyinchalik tartibli usulda ma'lum mavqega ega jurnalistlar, siyosatchilar hamda mansabdor shaxslarga nisbatan keng qoralovchi usulga aylandi [13].

Soxta yangiliklar atamasiga 2015-yildan beri ko'proq e'tibor berilib kelinmoqda. Afsuski, dunyoda yagona qabul qilingan atama yo'q, ammo olimlar, jurnalistlar va siyosatchilar ushbu mavzuni faol muhokama qilishmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, tekshirish ma'lumot bilan ish-

lash usullaridan biri, faktlarni tekshirish esa materiallarni tayyorlash formatidir [14].

Nima uchun soxta yangiliklar juda qiyin muammo?

Bu yerda ikkita omil muhim rol o'ynaydi.

Birinchi, psixologik omil. Soxta narsalar bizning e'tiborimizni bir zumda jalb qiladigan hissiyotlarga, rang-barang va ba'zan haqiqiy bo'lmagan sarlavhalarga asoslangan. Masalan, agar siz alkohol koronavirusni yengib o'tishga qodir deb hisoblasangiz, u holda alkoholning samaradorligini tasdiqlaydigan yangiliklarga duch kelsangiz, ehtimol siz uni "tibbiy maqsadlar" uchun ishlatgansiz.

Ikkinchi omil – bu insonning kundalik hayotida ijtimoiy sahifalar rolining tez o'sishi. Facebook, Twitter, YouTube va Google kabi texnik gigantlar muammoni tekshiruvchi kompaniyalarni yollash orqali muammoni hal qilishga urinmoqdalar, ammo bu ham epidemiyani to'xtata olmadi. Muammo, biz allaqachon ko'rib chiqqanimizdek, nafaqat tabiatan texnologik, balki psixologik hamdir.

Soxta yangiliklarni kim yaratadi

Kipr Texnologiya universiteti va Birmingemdagi Alabama universiteti olimlari quyidagi bo'linishni taklif qilishadi:

– Terroristik tashkilotlar. Ijtimoiy sahifalar ular uchun yangi a'zolari jalb qilish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

– Trollar. Xuddi shu ro'yxatda olimlar trollarni kiritishni taklif qilmoqdalar, ular o'zlarining fikriga ko'ra Internetning boshqa foydalanuvchilarini bezovta qilish va ularga aralashish uchun ishlaydi. Bunga Aziza Umarovanning ishi kiradi, u 2019-yilda "O'zbekiston havo yo'llari"ni tanqid qilgandan so'ng trollarning faollashishini e'lon qildi [15]. Trolling ko'pincha satira bilan aralashadi, shuning uchun olimlar va jurnalistlar hali ham aniq chegaralarni aniqlay olmaydilar.

– Iqtisodiy foydadan manfaatdor odamlar. Soxta yangiliklar butun kompaniyalarni xarob bo'lishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun manfaatdor tomonlar raqobatchilarga qarshi mish-mishlar va yolg'on yangiliklarni tarqatishga kirishadilar.

– Jurnalistlar. Shuni esda tutish kerakki, ayrim hollarda jurnalistlar bosim ostida, ko'pincha – vaqt omili bosimi ostida, xabardorlik darajasi, manbalarning to'g'riligi, shuningdek davlat organlari tomonidan ma'lumotni yashirish yoki buzib ko'rsatishda ishlaydi.

Ko'sh, O'zbekistonda bunga nisbatan qanday chora-tadbirlar ko'rilyapti? O'zbekiston uchun soxta xabarlar mavzusi nima uchun muhim?

Butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar allaqachon jamoatchilik fikrini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan virtual makonga aylandi.

Afsuski, bunda ta'sir usullari va vositalari doim ham qonuniy, to'g'ri va maqsadga muvofiq tanlanmayapti. Yuqorida biz feyklarining turli maqsadlar yo'lida qo'llaniladigan yuqori samarali, ammo oqibatlarini taxmin qilish mushkul bo'lgan vosita ekanini aytib o'tdik. Masalaga bugun ijtimoiy tarmoqlar o'zbek segmenti misolida qarasaq, muammolarni yanada aniq ko'ramiz. Masalan, yerqalampirni koronavirusga davo degan feyk ortidan moddiy foyda ko'rishdan tortib, u yoki bu amaldorni "o'ldi-qamaldi"ga chiqarib, asossiz xavotir uyg'otish orqali omma ongini manipulyatsiya qilishga urinishgacha.

Fake xabarlarga qarshi kurashda aholining mediasavodxonligini oshirishdan tortib, ushbu masalani qonun orqali tartibga solishgacha bo'lgan qilinadigan qator masalalarga yechim topish lozim.

Xususan, Milliy qonunchiligimizda feyk xabarlarini tarqatganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Ma'muriy va Jinoyat kodekslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy muhim ahamiyatga molik masalalarda yolg'on ma'lumotlarni haqiqiy deb taqdim etishga javobgarlik belgilanmagan.

Ayrim faol internet foydalanuvchilarida axborot madaniyatining past darajadali hamda mas'uliyatsizlik va jazoga tortilmaslik tuyg'usi sabab aholi orasida sarosimaga va ijtimoiy munosabatlarning beqarorlashuviga olib keluvchi yolg'on axborotlar va uydirmalar faol tarqatilayotgani kuzatilmoqda.

Bu holat, o'z navbatida, mamlakat hayotidagi jarayonlar va voqealarga nisbatan jamoatchilikning asossiz salbiy fikri shakllanishi to'g'risidagi xavotirlarga sabab bo'lmoqda. Zero, ko'pchilik fuqarolar mazkur xabarlarini haqiqiy va to'g'ri deb qabul qiladi. Shu bois bugun ushbu harakatlar uchun javobgarlik masalasi kun tartibiga chiqdi.

Ayni masalaga yondashishda tartibga solishni senzura bilan adashtirmaslik, me'yor va mezonlarni aniq belgilab olish hamda qaror qa-

bul qilish vakolati sudlarda ekanini unutmaslik lozim.

Bu kabi holatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish va ma'lumotlarni uzatishdagi qonunga xilof harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarligi kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublika qonun-hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi 2007-yil 30-noyabr qonunida kompyuter tizimida noqonuniy foydalanish bilan bog'liq xavfli qilmishlar jinoyat deb belgilandi hamda jinoyat kodeksi "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" nomi bilan XX bob bilan toldirildi. Mazkur bob Jinoyat kodeksi maxsus qismining "Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan oltinchi bo'limga kiritildi [16]. Butun dunyodagi kabi O'zbekistonda ham mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar", deb yozilgan. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "Axborot olish erkinligining asosiy prinsiplari axborotning oshkoraligi, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqqoniyligidan iboratdir" deyilgan. Bulardan tashqari, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra: "Axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi".

Ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlarni rad etish holatlari tez-tez uchrayotganiga e'tibor berganmisiz? Masalan, O'zbekistondagi blokirovka davomida karantin choralarining uzaytirilishi, Toshkentda ko'k rangdan foydalanishni taqiqlash va hattoki "monster"ning tomlarida uchib yurgani haqida rad etishlar bir necha bor e'lon qilingan.

O'zbekistonda AntiFake.Uz [17] soxta yangiliklarini rad etish uchun maxsus kanal ochildi. Shuningdek, 2020-yil dekabr oyida O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari yolg'on ma'lumotni, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va Internetda tarqatganlik uchun ma'muriy jazo choralari va jinoiy jazoni joriy etish to'g'risidagi qonun loyihasini ma'quladilar.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashish bo'yicha birorta qo'mita tashkil qilinmagan. To'g'ri diniy ekstremizm, terrorizm hamda davlatga qarshi qaratilgan ma'lumotlarni aniqlash-kurashish bo'yicha qo'mita tuzilgan, ammo bu qo'mita yolg'on ma'lumotlar bilan ish ko'rmaydi. Mart oyida O'zbekistonda Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritilib, karantin haqida yolg'on ma'lumotlarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan edi, deya xabar bergan o'sha paytda OAV. Yolg'on xabarlariga qarshi kurashish maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlarining va umuman aholi barcha qatlamining o'rni katta. Yolg'on axborot qancha tez tarqalsa, shuncha tez unga qarshi to'g'ri va xolis axborotni iste'molchilar e'tiboriga yetkazish talab qilinadi. 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi 400-I-son Qonunning 5-moddasida har kim axborot olishni so'rab bevosita o'zi yoxud qonuniy vakillari orqali murojaat etish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan [18].

Qonunning 121-moddasida hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni Internetda tarqatish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, qaysi turdagi axborot turlari Internetda tarqatilmaligi nomma-nom ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, moddada veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni joylashtirishdan avval uning to'g'riligini tekshirishi, shuningdek joylashtirilgan axborotning noto'g'riligi aniqlangan taqdirda uni darhol o'chirib tashlashi shartligi ko'rsatilgan.

1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi 723-I-son Qonunda noto'g'ri va yashirin reklama tushunchalarining mavjudligi yolg'on reklamaga qarshi kurashish bo'yicha normativ asos borligini ko'rsatadi.

Shu sababli yolg'on axborotga qarshi kurashish bo'yicha alohida qonun hujjati ishlab chiqishning zarurati yo'q. Faqatgina ularga nisbatan kurashni kuchaytirish maqsadida qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasi 3-qismida belgilangan talablarga

amal qilinmagan taqdirda veb-saytdan va (yoki) veb-sayt sahifasidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkin.

Ammo amalda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanaqa tartib belgilanganligi va qanday organ maxsus vakolatli organ hisoblanishi to'g'risida amaldagi qonunchilikda biron-bir normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunda shaxslar qatori yolg'on ma'lumotlarni tarqatgan ommaviy axborot vositasiga ushbu faktning OAVning o'zi aniqlagan hollarda o'z tashabbusiga ko'ra axborot bo'yicha raddiya berish huquqini berish kerak.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga belgilangan o'zgartirishlarni kiritgan holda yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatganlik uchun javobgarlikni kiritish maqsadga muvofiq [19].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 237-moddasiga yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida jinoyat to'g'risida berilgan yolg'on xabar aholi o'rtasida vahima yoki qo'rquv chiqargan holatlarni kiritish lozim bo'ladi [20].

Xorijiy davlatlar tajribasi nimalarga e'tibor qaratayotganini o'rganishimiz muhim. Jumladan, Malayziyada 2018-yil aprelda "Yolg'on xabarlariga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, ya'ni 2018-yilning avgust oyida mazkur qonun bekor qilindi. Bunga jamoatchilikning Qonunga e'tirozi, huquq himoyachilarining noroziligi sabab bo'ldi. Ularning fikricha, qonun fuqarolarining so'z erkinligiga bo'lgan huquqini cheklashni ko'zlagan. Qonun o'zi amalda bo'lgan davr mobaynida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan edi.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tomonidan yolg'on xabar tarqatayotgan ommaviy axborot vositalariga nisbatan ta'sir choralari qo'llashni nazarda tutuvchi qonun qabul qilinishi e'lon qilindi. Shunga qaramay Fransiya Milliy Majlisi quyi palatasi "Yolg'on xabarga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun loyihasini ma'qulladi. Agar mazkur qonun kuchga kirs, fransuz sudlari ommaviy axborot vositasini ularning ishonchligi bo'yicha kelib tushgan shikoyatga ko'ra bloklab

qo'yish vakolatiga ega bo'ladi va 48 soat ichida axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlaydi.

Rossiya Federatsiyasi Federatsiya Kengashi-ning quyi palatasi – Davlat Dumasi tomonidan ham 2019-yil yanvaridan boshlab yolg'on xabarga qarshi kurashish maqsadida "Axborot, axborot texnologiyalari va axborot himoyasi to'g'risida"gi va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi federal qonunlarga o'zgartirishlar kiritish ustida ishlanmoqda. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi ham. 2019-yil 13-mart kuni Rossiya Federatsiya Kengashi yolg'on xabarlar tarqatgan resurslarni bloklash va jazolash ko'zda tutilgan qonun loyihasini ma'qulladi.

Ukraina Oliy Radada yolg'on xabarlarga qarshi kurash maqsadida bir nechta variantlar ilgari surilgan. Ulardan biri yolg'on xabar tarqatgan jurnalistlarni sud qaroriga muvofiq ommaviy reyestriga kiritishdir. Shuningdek, yolg'on xabar tarqatganlik uchun katta miqdordagi jarimalar qo'llash ham taklif etilmoqda.

Fransiya, Rossiya va Ukrainada ilgari surilayotgan qonun loyihalarida asosiy urg'u yolg'on xabar tarqatgan jurnalistlar va ular faoliyat olib boradigan ommaviy axborot vositalariga nisbatan qaratilgan. Ulardan farqli ravishda Malayziya tomonidan qabul qilinib, bekor qilingan qonunda javobgarlik subyekti nafaqat jurnalist yoki ommaviy axborot vositasi, balki jismoniy hatto yuridik shaxslarning ham javobgarligi nazarda tutilgan.

Buyuk Britaniyada Internetdagi feyklar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish keng tus olgan. Hozirgi kunda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan internet tartibga solish prinsiplarini o'zida aks ettiruvchi Raqamli xartiyani qabul qilish ustida ish olib borilmoqda. Buning uchun ko'ngillilar, IT-kompaniyalar, ta'lim muassasalari, aholi va jamoatchilik tashkilotlari jalb qilingan

Mediada savodxonlik kampaniyasi Kanadada ham keng qo'llanilmoqda. 2019-yilda Kanadadagi parlament saylovlari oldidan rasmiylar dezinformatsiya va saylovlarning aralashuviga qarshi kurashish uchun hukumatning maxsus guruhini tuzdilar. Singapurda media-savodxonlik dasturi ishga tushirildi. Internetda yolg'on ma'lumot tarqatadigan odamlar javobgarlikka tortiladilar. Ummonda hukumat davlat xizmatchilarining malakasini oshirmoqda, ammo mamlakatda qat'iy qonunlar ham mavjud.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti COVID-19 pandemiyasi paytida dezinformatsiya tarqalishiga qarshi kurashning beshta usulini taklif qildi. Bularga dalillarni yig'ish va ishonchli ma'lumotlarni tarqatish, yirik telekommunikatsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda kompaniyalarni boshlash, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqalar va fuqarolik jamiyati bilan ishlash kiradi. Shuningdek, BMT so'z erkinligi tamoyillariga rioya qilish zarurligini eslatdi.

Soxta yangiliklar muommosiga huquqiy yechim bormi?

Yolg'on ma'lumotlarni tarqatayotgan trollarni qay tarzda jazoga tortish mumkin?

Qisqa javob "ha", ammo bu unchalik oddiy emas. Mamlakatlar, jurnalistlar, akademiklar va siyosatchilar dezinformatsiya va yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashishning turli usullarini qo'llashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Internetda tarqaluvchi yolg'on xabarlarga qarshi kurashuvchi alohida qonun hujjati mavjud emas. Lekin axborot, axborotlashtirish va reklama sohaslarini, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari mavjud. Shu sababli o'rganilgan xorij davlatlari tajribasidan kelib chiqqan holda mavjud qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan vujudga kelgan huquq bo'shliqlarini bartaraf etish mumkin.

Albatta, tanganing ikki tomonini ko'ra bilish lozim. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi do'stlar orttiriladi, mavjudlari bilan aloqalar mustahkamlab boriladi, uydan yoki ofisdan chiqmay turib xaridlar qilinadi, mahsulot narxlari haqida ma'lumotga ega bo'linadi va yangiliklardan soniyalar ichida xabardor bo'lish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining yarmi brend mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarining sa-hifalariga obuna bo'lishgan.

Tanganing ikkinchi tomoniga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularning ba'zilar bu orqali piar yaratish, ba'zilar kimlarnidir obro'sizlantirishni, aholi o'rtasida vahima uyg'otishni, turli bo'htonlar tarqatib, davlat hokimiyati organlari obro'sini to'kishni maqsad qilgan. Shu sababli dunyo davlatlari Internetda tarqatilayotgan yolg'on xabarlarga qarshi kurashish, ularning salbiy oqibatlarni bartaraf etish bo'yicha fikr yuritmoqda

Hodisa aybdorlari to'g'risida yolg'on faktorlarni ma'lum qilish, masalan, aslida umuman hodisaga aloqador bo'lmagan shaxslarni hodisa ishtirokchisi, hodisa aybdori sifatida ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalari qonunchilikda bayon etilmagan.

Amalda mamlakatimizda yolg'on axborotlarni tarqatishga qarshi quyidagicha holat mavjud:

O'zini bechorahol, og'ir bemor sifatida yoki shunday turdagi bemorlarni davolovchi, yaxshi odamlarning xayr-ehsoni hisobiga boyishni maqsad qilgan shaxslarni insonlarning ishonchini suiiste'mol qilib, boylik orttirishni maqsad qilganidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 168-moddasida belgilangan firibgarlik jinoyati bilan kvalifikatsiya qilish mumkin;

Kishilar o'rtasida vahima va qo'rquv kayfiyatini uyg'otish maqsadida terrorchilik akti sodir etilganligi to'g'risida noto'g'ri xabar berganlik Jinoyat kodeksi 237-moddasida belgilangan yolg'on xabar berish jinoyati bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Bundan tashqari Internet tarmog'ida kishilarni o'ziga jalb qilish, boylik orttirish maqsadida og'ir kasalliklarni davolovchi dorilarni ixtiro qilganligi yoki shunday kasalni davolashini aytib yolg'on axborot berishni JK 168-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish imkoni mavjud. Mobil aloqa vositasi orqali yolg'on xabar tarqatish holatlari uchrab turishini inobatga olib, buni ham ushbu modda bilan qamrab olish mumkin [21].

Shu bilan birga, bir qator holatlar bo'yicha qonunchilikda bo'shliqlar mavjud:

Aholi o'rtasida vahima, qo'rquv va davlatga qarshi norozilik kayfiyatini uyg'otish maqsadida halokatlar (tabiiy yoki boshqa turdagi) yolg'on axborot tarqatganlik;

Aholi o'rtasida vahima uyg'otish uchun aslida sodir bo'lgan fojialar to'g'risida noto'g'ri va tasdiqlanmagan axborot tarqatganlik;

Hodisa aybdorlari to'g'risida yolg'on faktorlarni ma'lum qilish, masalan, aslida umuman hodisaga aloqador bo'lmagan shaxslarni hodisa ishtirokchisi, hodisa aybdori sifatida ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalari qonunchilikda bayon etilmagan.

2007-yil 15-yanvardagi O'RQ-78-son Qonun bilan tasdiqlangan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasida Yuridik yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositasida

e'lon qilingan, haqiqatga mos kelmaydigan hamda o'zining sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlovchi ma'lumotlar uchun raddiya berishni tahririyatdan talab qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Bu bilan shaxslarning raddiya berish va javob qaytarish huquqi mustahkamlangan. Shu sababli yolg'on axborotga qarshi kurashish bo'yicha alohida qonun hujjati ishlab chiqishning zarurati yo'q. Faqatgina ularga nisbatan kurashni kuchaytirish maqsadida qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasi 3-qismida belgilangan talablarga amal qilinmagan taqdirda veb-saytdan va (yoki) veb-sayt sahifasidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkin [22].

Ammo amalda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanaqa tartib belgilanganligi va qanday organ maxsus vakolatli organ hisoblanishi to'g'risida amaldagi qonunchilikda biron-bir normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga belgilangan o'zgartirishlarni kiritgan holda yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatganlik uchun javobgarlikni kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 237-moddasiga yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida jinoyat to'g'risida berilgan yolg'on xabar aholi o'rtasida vahima yoki qo'rquv chiqargan holatlarni kiritish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni aytish kerakki, soxta yangiliklar, so'nggi yillardagi raqamli asrning mahsuloti bo'lib, insoniyatning ikkinchi hayoti hisoblangan ijtimoiy tarmoqlarning buzg'unchisiga aylandi. Bunda oddiy axborot mahsulotlarini iste'molchisi nima haqiqat va nima yolg'on ekanligini aniqlay olmaydi (va ba'zan istamaydi).

Ayni paytda tadqiqotchilar savollar berishmoqda: soxta yangiliklarni rivojlantirish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud va jurnalistikaga qanchalik katta tahdid – bu sifatsiz ma'lumotlarning katta oqimi.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqqa bo'lgan ehtiyoj xorijiy davlatlar bilan taqqoslaganda tenglashib ulgurdi. Endilikda ijtimoiy tarmoqlardagi ji-

noyatchilikni ikkinchi o'ringa qo'yish katta xatolik. Sababi birgina yolg'on ma'lumotning shaxslarga ta'siri, keyinchalik butun bir jamiyatga zarar keltiradigan kuchga aylanmasligiga hech kim kafolat bermaydi

Bizningcha, eng ma'qul yechim xalqaro kiberxavfsizlik tashkilotlariga a'zo bo'lib, hamkorlikda ish yuritishdir. Sababi kiberjinoyatchilik haqida xorij tajribasining salmog'i oshiqroq. Hozirgi kunda kiberjinoyat deb nomlanagan jinoyat tez sur'atlar bilan oshib bormoqda va uning yangicha turi, shakli paydo bo'lmoqda. Jinoyatchi-

lar uchun axborot kommunikatsiya sohasidagi sodir etilayotgan jinoyatlar eng bexatar va tinch yo'ldir. Hech qanday daliliy ashyo qoldirmasdan masofadan turib jinoyatlarni amalga oshiradi. Bu esa Kriminalistik izlanish uchun qiyinchilik tug'diradi.

O'ylaymizki, kiberxavfsizlik tizimiga yetuk dasturchi kadrlar qabul qilinsa, jinoyatlarini aniqlash unchalik ham mushkul bo'lmaydi. Qonunga o'zgartirishlar kiritish, jazoni va jarimalarni og'irlashtirilgan shakliga almashtirish kiberjinoyatchilikning oldini olishga yechim bo'ladi.

REFERENCES

1. 25.06.2020-yildagi O'RQ-658-son Qonuni [Law No. ZRU-658 of 25.06.2020]. Available at: <https://www.norma.uz/>.
2. The New York Times. By Cecilia Kang and Adam Goldman, Dec. 5, 2016. Available at: <https://www.nytimes.com/>.
3. The New York Times. By Russell Goldman, Dec. 24, 2016. Available at: <https://www.nytimes.com/>.
4. Meetings 21-22.02. 2019. Available at: <https://oscepa.org/>.
5. IX Sankt-Peterburg xalqaro yuridik forumi 2019 (SPIEF) manba Federal Sanoat mulk instituti [IX St. Petersburg International Legal Forum 2019 (SPIEF) source Federal Institute of Industrial Property]. Available at: <https://spblegalforum.ru/>.
6. Axborot texnologiyalari bilan bog'liq jinoyatlar haqida Vikipediya (bepul Internet ensiklopediyasi) tezkor ma'lumotnoma [A quick reference from Wikipedia (a free Internet encyclopedia) about information technology crimes].
7. AKT vazirligining matbuot anjumani hisoboti [Report of the press conference of the Ministry of ICT]. 11.12.2020. Available at: <https://www.gazeta.uz/>.
8. uz.infocom.uz sayti maerialidan foydalanildi 27.01.2018 [The material of the site uz.infocom.uz was used 27.01.2018].
9. Toshkenov U. Huquqiy siyosat tadqiqot instituti ilmiy rahbari nutqidan [In the speech of the scientific director of the Legal Policy Research Institute].
10. Borden S.L. The role of journalist and the performance of journalism. Ethical lessons from "fake" news (seriously). S.L. Borden, C. Tew. Journal of Mass.
11. Rasmiy saytdan olingan manba [Source from the official site]. Available at: <https://langustdesign.ru/>.
12. Allcott H., Gentzkow M. Social Media and Fake News in the 2016.
13. Baturin YU.M., Zhodzinskiy A.M. Komp'yuternaya prestupnost' i komp'yuternaya bezopasnost' [Computer crime and computer security]. Moscow, Norma, 1991.
14. Simonato M. Information technology in criminal procedure. Dans Revue internationale de droit pénal 2014/1-2, vol. 85, pp. 261-310.
15. kun.uz manbasi 09.07.2019 yoki [m.facebook.com](https://www.facebook.com) Aziza Umarova shaxsiy posti [kun.uz source 09.07.2019 or [m.facebook.com](https://www.facebook.com) Aziza Umarova's personal post].
16. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, vol. 5, Spesial issue, pp. 703-719.
17. Rasmiy sayti AntiFake.UZ [Official site AntiFake.UZ].
18. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi 400-I-son Qonunning 5-moddasida 24.04.1997 [Article 5 of the Law of the Republic of Kazakhstan "On guarantees and freedom of access to information" No. 400-I 24.04.1997].

19. To'rayev S. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning yuridik tahlili [Legal analysis of crimes committed using the Internet]. Yuridik fanlar axborotnomasi – Vestnik yuridicheskikh nauk – Review of law sciences, Tashkent, 2021, p. 703.

20. Ochilov X.P., Turg'unboyev E.O. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. O'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muxarrir Tohirov [Criminal law. General section. Textbook. Editor-in-Chief Tohirov]. Tashkent, 2013, pp. 30–34.

22. Axborotlashtirish to'g'risidagi Qonunning 121-moddasi 3-qismi. Tashkent, 560-II-son, 11.12.2003 [Article 121, Part 3 of the Law on Informatization. Tashkent, 560-II-son, 11.12.2003]. Available at: [https://www.lex.uz/..](https://www.lex.uz/)

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.